SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI

BEKTEMIROV ZOHID NODIROVICH

HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA ILOVALI ELEMENTLARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.112.2:81’1

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Bektemirov Zohid Nodirovich
Hozirgi zamon nemis tilida ilovali elementlarning lingvopragmatik xususiyatlari.. 3

Бектемиров Зохид Нодирович
Лингвопрагматические особенности присоединительных элементов в современном немецком языке.....25

Bektemirov Zohid Nodirovich
Linguopragmatic features of adjoining elements in modern German.....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....56

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI

BEKTEMIROV ZOHID NODIROVICH

HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA ILOVALI ELEMENTLARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3782 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya "Ipak yo‘li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchti.uz hamda "Ziyo Net" Axborot-ta‘lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Begmatov Muxtor Begmatovich** filologiya fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Tagayeva Sayyora Ulashevna filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning "13" noyabr 2026-yil soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand Davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (66252-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "28" oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil "28" oktabr dagi № 57 raqamli reyestr bayonnomasi).

B.A. Xolikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlarida hozirgi zamon nemis tilida ilova konstruksiyalarining lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu tanlovning asosiy sababi shundaki, ilova konstruksiyalar nafaqat sintaktik birlik, balki nutq jarayonida baholovchi munosabat, implitsit ma’no va kommunikativ ta’sirni yuzaga chiqaruvchi pragmatik vosita sifatida ham faol qo‘llanadi. Mavjud tadqiqotlarda ular asosan sintaktik va stilistik jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa-da, nutqiy aktdagi illokutiv kuchi, ekspressiv ta’siri va kommunikativ strategiyalarni shakllantirishdagi roli yetarli darajada ochib berilmagan. Shu bois, ilova konstruksiyalarni pragmatik jihatdan o‘rganish sintaktik tavsifdan kommunikativ-funksional yondashuvga o‘tishdagi ilmiy bo‘shliqni to‘ldiradi.

Dunyo tilshunosligida ilova konstruksiyalarining kontekstual qo‘llanishi bo‘yicha ayrim tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, ularning matn ichidagi pragmatik funksiyalari, ekspressiv yuklama hosil qilishi va kommunikativ ta’sir mexanizmlari to‘liq tizimli o‘rganilmagan. Ayniqsa, badiiy matnlarda ularning muallif pozitsiyasini ifodalash va o‘quvchi idrokini boshqarishdagi roli yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot ilova konstruksiyalarni lingvopragmatik jihatdan kompleks o‘rganish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga hamda hozirgi zamon nemis tilining badiiy matndagi kommunikativ-sintaktik mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq keng miqyosda islohotlar olib borildi. Ana shunday davrda respublikamiz yoshlarining ta’lim-tarbiya darajasini yuqori pog‘onaga ko‘tarish, ularning intellektual salohiyatini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz rivojlanishining tamoyillariga asoslangan holda “... ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, fan va ishlab chiqarish yutuqlarini amaliyotga tadbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish bugungi kunda ustuvor vazifaga aylandi”[1]. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hamma sohalarida fanning rolini oshirish, mamlakatning ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan ishlar xorijiy tillarni har tomonlama chuqur o‘rganish, ularni turli yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy jihatdan tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotlar va izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, hozirgi zamon nemis tilida ilova konstruksiyalarining lingvopragmatik funksiyasini badiiy matnda ifodalanishini tadqiq qilish hamda ularni strukturaviy va semantik jihatdan tavsiflash zarurati mavjudligi ko‘zga tashlanadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni, 29.10.2020-yil. https://lex.uz/uz/docs/-5073447 (25.05.2024).

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish sifatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va ushbu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda ilova hodisasi va ilova konstruksiyalari turli ilmiy yo‘nalishlar doirasida o‘rganilgan bo‘lib, mavjud tadqiqotlarni shartli ravishda bir necha yo‘nalishga ajratish mumkin.

Ilova konstruksiyalarining semantik-pragmatik va umumiy lingvistik asoslari R. Pozner, J. Ostin, S.K. Levinson, J. Maybauer, H. Vaynrix[2] kabi olimlar tomonidan nutq aktlari nazariyasi, pragmatika va matn grammatikasi doirasida tadqiq etilgan. Ushbu ishlarda ilova elementlarning nutqdagi ma’no hosil qilish, kommunikativ niyatni ifodalash hamda diskursdagi funksional roli umumiy nazariy jihatdan yoritilgan.

Nemis tilshunosligida U. Engel, V. Abraham, V. Shmidt, K. Brinkmann, H. Altmann, V. Frey, M. Averintseva-Klisch[3] kabi olimlar tomonidan ilova konstruksiyalari sintaktik tuzilma va gap perferiyasi elementlari sifatida o‘rganilib,

---

[2] Posner R. Theorie des Kommentierens Eine Grundlagenstudie zur Semantik und Pragmatik /Linguistische Forschungen Bd. 9 /. Frankfurt/M Athenäum Verlag, 1972.-224 S.; Austin J. L. Zur Theorie der Sprechakte. Deutsche Bearbeitung von Eike von Savigny. – Stuttgart: Philipp Reclam Jun., 1972. – 219 S.; Levinson S.C. Pragmatik. Ins Deutsche übersetzt von U. Fries. – Tubingen: Max Niemeyer Verlag, 1990. – 421 S.; Meibauer J. Pragmatik: Eine Einfuhrung. – Tubingen: Stauffenburg Verlag, 1999. – 208 S.; Weinrich H. Textgrammatik der deutschen Sprache. – Mannheim/ Leipzig/ Wien/ Zurich: Dudenverlag, 1993. – 1111 S.

[3] Engel U. Deutsche Grammatik. -Heidelberg, 1988.- 888 S.; Abraham W. Deutsche Syntax im Sprachvergleich. Grundlegung einer typologischen Syntax des Deutschen. -Tübingen, 1995. Bd. 41.; Schmidt W. Deutsche Sprachkunde. -Berlin / Volk und Wissen, 1968. - 3561 S.; Brinkmann H. Die deutsche Sprache. Gestalt und Leistung . Pädagogischer Verlag Schwann. - Düsseldorf, 1971. – 939 S.; Altmann H. Formen der “Herausstellung” im Deutschen. Rechtsversetzung, Linksversetzung, Freies Thema und verwandte Konstruktionen / Linguistische Arbeiten 106. Hrsgg. H.E. Brekle, H.J. Heringer. – Tubingen: Max Niemeyer Verlag, 1981. – 369 S.; Frey W. Zur Syntax der linken Peripherie im Deutschen. – Göteborger, 2005. – S. 147-171; Averintseva-Klisch M. Links und Rechts vom Satz: Satzperipherien im Deutschen und ihre Rolle im Diskurs: (Institut für Deutsche Sprache. Jahrbuch 2005). – Berlin, New York: de Gruyter, 2006. – S. 371-374.

ularning gapdagi o‘rni, struktur xususiyatlari hamda boshqa sintaktik birliklar bilan munosabati tahlil qilingan. Xususan, H. Altmann, V. Frey va M. Averintseva-Klisch ishlarida ilova konstruksiyalarining gapning chap va o‘ng perferiyasidagi realizatsiyasi hamda ajratilgan konstruksiyalar bilan bog‘liqligi ochib berilgan.

H. Burger, V. Kindt, H. Rieser, V. Franke[4] kabi tadqiqotchilar ilova konstruksiyalarni kommunikativ-pragmatik va dialogik nutqdagi funksiyalari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqib, ularning matn hosil qilish, axborotni ta’kidlash, izohlash va aniqlashtirishdagi roli haqida fikr yuritganlar.

Rus tilshunosligida A.P. Velichuk, A.A. Vinogradov, V.V. Gavrilova, M.T. Gaybova, L.I. Burak, V.G. Gak, E.A. Gulyayeva, T.I. Silman[5] kabi olimlar tomonidan ilova konstruksiyalari sintaktik aloqa turi, stilistik vosita va kommunikativ ajratish usuli sifatida o‘rganilgan. Xususan, L.Yu. Maksimov[6] ilova va parsellyasiya hodisalarini matnning struktur tashkil topishi bilan bog‘liq holda tahlil qilgan bo‘lsa, T.L. Vaulina[7] ilova konstruksiyalarining struktur, semantik va funksional xususiyatlarini gazeta matnlari misolida yoritgan.

O‘zbek tilshunoslaridan mazkur muammoni tadqiq etishda B.T. Tursunovning[8] ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda ilova konstruksiyalari sintaktik aloqaning alohida turi sifatida asoslab berilgan. Ushbu ilmiy yo‘nalish doirasida B. Axmedova, M. Begmatov, A. Mambetniyozova, I. Mamasoliyev, M. Rahimov, M. Kuchiyevlarning[9] tadqiqotlarida ilova

---

[4] Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – 4th ed. – Berlin, 2010. – 239 S.; Kindt Walter, Rieser Hannes. Syntax- und Semantikkoordination im Dialog. //Kognitionswissenschaft 8. Springer-Verlag, 1999. 8. – S. 123-128; Duden Die Grammatik. Band 4-7 // Auflage, Dudenverlag. -Mannheim, 2006. – S. 990-993; Franke W. Elementare Dialogstrukturen: Darstellung, Analyse, Diskussion // Reihe Germanistische Linguistik. – Tubingen: Max Niemeyer Verlag, 1990. – 186 S.

[5] Величук А.П. О специфике присоединительной связи в современном русском языке (сочинение и присоединение): Автореф. дисс… канд. филол. наук. - М., 1961. – 16 с.; Виноградов А.А. Структура и функции присоединительных конструкций в современном русском литературном языке: Автореф. дисс.… канд. филол. наук. -М., 1984. -16 с. Гаврилова В.В. Присоединительные конструкции и их стилистическое использование в произведениях современной немецкой художественной литературы: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. -Л., 1969. -21 с.; Гайбова М.Т. Присоединительные конструкции и их стилистические функции в художественной прозе (на материале английского языка): Автореф. дисс.... канд. филол. наук. -М., 1973. -21 с.; Бурак Л.И. Присоединение в современном белорусском литературном языке: Автореф.дисс.… докт. филол. наук. - Минск, 1979. – 25 с.; Гак В.Г. Коммуникативные трансформации и системность средств логического выделения во французском языке // Филол.науки, 1975, № 5. С. 49-59; Гуляева Э.А.Обособленные оппозитивные конструкции в современном французском языке (в плане грамматического и актуального членения): Автореф. дисс... канд. филол. наук. - Киев, 1973. -29 с.; Сильман Т.И. Проблемы синтаксической стилистики. -Л.: Просвещение, 1967. -152 с.

[6] Максимов Л.Ю. Многомерная клсссификация сложноподчиненных предложений (на материале современного русского литературного языка): Монография. -Москва: Флинта, 2016. - 676 с.

[7] Ваулина Т.Л. Роль лексического повтора в присоединительных конструкциях // Наука – вуз – школа: Сб. научн. труд. молодых исследователей. – Магнитогорск: МаГУ, 2010. – Вып. 15. – С. 182-186.

[8] Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи: Автореф. дисс… докт. филол. наук. - Санкт-Петербург, 1993. – 44 с.

[9] Ахмедова Б.М. Лион Фейхтвангер ижодида илова ҳодисаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1998. –187 б.; Бегматов М.Б. Тўлдирувчи билан ифодаланган иловали элементларнинг функциялари. – Самарқанд, 1999. – 145 б.; Мамбетниязова А.Х. Ҳозирги замон немис тилида тўлдирувчиларнинг ажратилган бўлак сифатида бажариб келадиган коммуникатив-прагматик функциялари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2021. –160 б.; Мамасолиев И.У. Ҳозирги немис тилида илова конструкцияларнинг стилистик-прагматик функциялари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 56 б.; Rahimov M.R. Badiiy matnda ilova qurilma struktur-semantik ma’nosining ifodalanishi: Filol. fan. boyicha falsafa dokt (PhD) … diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 50 b.; Kuchiyev M.A. Hozirgi zamon nemis tilida frazeologizmlar ishtirok etgan ilova qurilmalar: struktur-semantik tahlil: Filol. fan. boyicha falsafa dokt. (PhD) … diss. avtoref.. – Samarqand, 2024. – 48 b.

konstruksiyalari asosan struktur-semantik, stilistik va kommunikativ jihatlar, xususan, badiiy matnda qo‘llanishi, ikkinchi darajali bo‘laklar orqali ifodalanishi hamda ayrim pragmatik funksiyalari nuqtayi nazaridan o‘rganilgan.

Shu bilan birga, yuqoridagi tadqiqotlarda ilova konstruksiyalarining alohida jihatlari keng yoritilgan bo‘lsa-da, hozirgi zamon nemis tilida ilovali elementlarning lingvopragmatik xususiyatlari, ya’ni ularning nutq jarayonida kommunikativ maqsadga muvofiq qo‘llanishi, baholash, ta’kidlash, izohlash kabi pragmatik funksiyalarni amalga oshirish mexanizmlari kompleks tarzda maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan.

Mazkur dissertatsiya aynan ilovali elementlarning lingvopragmatik xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgani bilan mavjud tadqiqotlardan farqlanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Til, adabiyot, tarjima va madaniy merosning xalqaro kommunikativ darajasini oshirish tadqiqi” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi zamon nemis tilida ilova konstruksiyalarining lingvopragmatik va ekspressiv funksiyalarini, shuningdek, ularning badiiy matnda muallifning subyektiv bahosi va nutqiy niyatini ifodalashdagi rolini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ilova hodisasi, ilova konstruksiya va ilovali element tushunchalarini nazariy jihatdan tahlil qilish orqali ularning hozirgi zamon nemis tilidagi badiiy matn doirasidagi lingvistik maqomini aniqlash;

hozirgi zamon nemis tilidagi badiiy matnlarda qo‘llangan ilova konstruksiyalarining struktur xususiyatlari hamda ilovali elementlarning tashkil topish modellari va semantik ma’nolarini tahlil qilish orqali ularning funksional-semantik imkoniyatlarini ochib berish;

ilova konstruksiyasi tarkibidagi ilovali elementlarning leksik tarkibi va ularning badiiy matnda qo‘llanish darajasini misollar asosida tahlil qilish orqali ularning sistem-semantik xususiyatlarini dalillash;

hozirgi zamon nemis badiiy matnlarida ilova konstruksiyalarining lingvopragmatik va ekspressiv rolini tahlil qilish orqali ularning muallif nutqiy niyati, emotsional-baholovchi munosabati hamda adresant–adresat kommunikatsiyasini faollashtirishdagi ahamiyatini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida nemis badiiy matnlari, xususan Bansherus Yurgenning “Asphalt Roulette”, Tomas Brussigning “Am kurzeren Ende der Sonnenallee”, E.M.Remarkning “Die Nacht von Lissabon” hamda Xrista Volfning “Medea. Stimmen” va shu kabi boshqa asarlar olindi.

Tadqiqotning predmeti hozirgi zamon nemis tilidagi badiiy matnlarda qo‘llangan ilova konstruksiyalarining lingvopragmatik, ekspressiv hamda struktur-semantik va funksional xususiyatlaridir.

Tadqiqotning metodlari sifatida ishda komponent tahlil, tasnifiy tahlil, struktur tahlil, shuningdek, lingvistik tasvirlash metodlaridan foydalanilgan.

Xususan, komponent tahlil yordamida ilova konstruksiyalarining semantik tarkibi va ularni tashkil etuvchi ma’no qismlari ajratib ko‘rsatildi; tasnifiy tahlil orqali esa materiallar ularning struktur va funksional belgilariga ko‘ra guruhlarga ajratildi. Struktur tahlil metodidan ilova birliklarining sintaktik tuzilishi va gap tarkibidagi o‘rni hamda boshqa sintaktik birliklar bilan munosabati aniqlashda foydalanildi. Lingvistik tasvirlash metodi esa tahlil qilingan birliklarning til tizimidagi umumiy xususiyatlarini izchil yoritish va ularning qo‘llanish holatlarini faktik materiallar asosida tavsiflashda qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilova hodisasi, ilova konstruksiya va ilovali element kabi ilmiy tushunchalarning nazariy asoslari tizimlashtirilib, ularning hozirgi zamon nemis tilidagi badiiy matn doirasidagi lingvistik maqomi (ko‘plab misollar yordamida) aniqlangan;

hozirgi zamon nemis tilidagi badiiy asarlardan olingan matnlarda qo‘llangan ilova konstruksiyalarining struktur xususiyatlari (sodda va murakkab ilova konstruksiyalar), ilovali elementlarning tashkil topish modellari (asosiy ifoda + ilovali element, asosiy ifoda + ilovali elementlar) hamda semantik ma’nolari asosida ularning funksional-semantik imkoniyatlari ochib berilgan;

ilova konstruksiyasi tarkibidagi ilovali elementlarning leksik-grammatik tarkibi va ularning badiiy matndagi qo‘llanish darajasi nemischa badiiy asarlardan olingan misollar tahlili asosida ularning tizimli semantik xususiyatlari dalillangan;

hozirgi zamon nemis badiiy asarlari matnlarida ilova konstruksiyalarining lingvopragmatik va ekspressiv roli, ularning muallif nutqiy niyati, emotsional-baholovchi munosabati hamda adresant–adresat kommunikatsiyasini faollashtirishdagi ahamiyati faktik materiallar asosida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ilova konstruksiyalar va ulardagi ilovali elementlarning struktural, funksional va pragmatik jihatlari aniqlangan;

tahlil qilingan ilovali elementlarning semantik va ekspressiv ma’nolari badiiy matnlarda ularning emotsional-baholovchi va kommunikativ funksiyalari orqali ko‘rsatib berilgan;

ilova konstruksiyalardagi ilovali elementlarning leksik tarkibiga xos xususiyatlari va ularning struktur-semantik hamda pragmatik tomonlari ochib berilgan;

tadqiqot natijalari hozirgi zamon nemis tilida ilova konstruksiyalari bilan bog‘liq tilshunoslik, leksikologiya, pragmatika va o‘quv materiallarini takomillashtirish, shuningdek, badiiy matnlarni tahlil qilish metodikasini rivojlantirishda amaliy qo‘llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy yondashuvlar, tahlil metodlari, yaratilgan nazariyalar va lingvstik konsepsiyalarning qo‘llanganligi, tahlilga tortilgan katta hajmda faktik material va amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishidagi nazariy holatlarga muvofiqligi, tahlil hamda natijalarning asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati amalga oshirilgan tahlillar asosida olingan natijalardan ilova konstruksiya lingvopragmatik tadqiqining keyingi rivojlanishida, shuningdek, boshqa tillar materiallarida olib borilgan izlanishlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa oliy ta'lim tizimida "Nazariy grammatika", "Leksikologiya", "Matn tahlili" kabi fanlardan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, "Lingvistik tahlil metodlari", "Matn lingvistikasi", "Zamonaviy lingvistika" kabi maxsus kurslarni o'qitishda, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarini yozishda foydalanish mumkinligi orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hozirgi zamon nemis tilida ilovali elementlarning lingvopragmatik xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar va xulosalar asosida:

hozirgi zamon nemis tilidagi ilova konstruksiyalarining funksional-pragmatik xususiyatlari tizimli asosda ochib berilib, ularning faqat sintaktik hodisa emas, balki muallifning kommunikativ niyati, emotsional-baholovchi munosabati va implitsit ma'nolarni ifodalovchi samarali pragmatik vosita ekanligiga oid xulosalardan O'zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5-raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 23-iyundagi 353/1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada hozirgi zamon nemis tilidagi ilova konstruksiyalarida ilovali elementlarning leksik-semantik tarkibiga xos xususiyatlar aniqlanib, ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari tizimli ravishda tahlil qilindi hamda ilovali elementlarning faqat sintaktik hodisa emas, balki muallifning kommunikativ niyati, emotsional-baholovchi munosabati va implitsit ma'nolarni ifodalovchi samarali pragmatik vosita ekani ilmiy jihatdan asoslab berildi. Olingan natijalar tilshunoslik, nazariy va amaliy grammatika hamda leksikologiya fanlari bo'yicha yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

ilova konstruksiyalarining pragmatik salohiyati mikrokontekst va makrokontekstning o'zaro ta'siri orqali yuzaga chiqishi, aynan shu kontekstual munosabatlar ularning emotsional-ekspressiv ta'sir kuchini belgilashi mumkinligiga doir mulohazalardan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston flialida 2017-2021 yillarda bajarilgan FZ-2016-09081165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston flialining 2025-yil 23-iyundagi 282-sonli ma'lumotnomasi). Natijada hozirgi zamon nemis tilida ilovali elementlarning lingvopragmatik xususiyatlari mikrokontekst va makrokontekstning o'zaro ta'siri asosida tahlil qilinib, ularning kommunikativ niyatni ifodalash, emotsional-baholovchi munosabatni kuchaytirish hamda implitsit ma'nolarni yuzaga chiqarishdagi roli aniqlangan;

hozirgi zamon nemis tilidagi ilova konstruksiyalari nutqiy harakatlar nazariyasi asosida tahlil qilinib, ularning dialogik nutqda bir kommunikant doirasidan chiqib, kommunikativ hamkorlik mahsuli sifatida shakllanishi va yagona illokutiv kuch bilan tavsiflanishiga doir mulohazalardan O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining ijodiy to‘garaklari faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 20-iyundagi 01-03/228-sonli ma’lumotnomasi). Natijada hozirgi zamon nemis tilidagi ilova konstruksiyalari nutqiy harakatlar nazariyasi asosida tahlil qilinib, ularning dialogik nutqda kommunikantlar o‘rtasidagi hamkorlik mahsuli sifatida shakllanishi va yagona illokutiv kuch bilan tavsiflanishi aniqlandi. Olingan natijalar badiiy matnlarda murakkab sintaktik tuzilmalarning lingvopragmatik ma’nosini tushunish, matnni to‘g‘ri talqin qilish va o‘quvchilar tomonidan mazmunni aniq anglashiga xizmat qilgan;

hozirgi zamon nemis tilidagi ilova konstruksiyalari lingvopragmatik va ekspressiv funksiyalar asosida tahlil qilinib, ularning badiiy matnda muallifning subyektiv bahosi, nutqiy niyati va emotsional yo‘nalganligini ifodalashda strategik vosita sifatida qo‘llanilishi hamda hozirgi zamon nemis badiiy matnlarida ilova konstruksiyalar adresant-adresat kommunikatsiyasini faollashtiruvchi va emotsional-baholovchi funksiyalarni bajaruvchi lingvopragmatik vosita ekanligiga oid xulosa va yechimlardan Samarqand viloyat teleradiokanalining 2025-yil 23-iyun kuni efirga uzatilgan “Assalom Samarqand!” ko‘rsatuvining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlashda foydalanildigan (Samarqand viloyat teleradiokanalining 2025-yil 24-iyundagi 01-07/225-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ilovali elementlarni lingvopragmatik jihatdan tahlil qilish asosida ilovali elementlar tarkibidagi birliklar funksional-semantik jihatdan tavsiflanish sifatida bir qator lingvistik imkoniyatlarni berishga zamin yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari ilmiy ma’ruza ko‘rinishida 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalari chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola, shulardan 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarida ish e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy matni 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini

amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ilova konstruksiyalarini o‘rganishning nazariy va metodologik asoslari”** nomli birinchi bobida hozirgi zamon nemis tilida ilova konstruksiyalarining lingvistik tabiati, ularning nazariy talqini hamda tadqiq etilish metodologiyasi izchil yoritiladi. Mazkur bobda ilovali elementlarning sintaktik birliklar tizimidagi o‘rni, gap strukturasini murakkablashtirishdagi roli va struktur-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ilova hodisasining umumtilshunoslik va german tilshunosligida o‘rganilish tarixiga oid asosiy ilmiy qarashlar ko‘rib chiqilib, mavjud konsepsiyalar tizimlashtiriladi.

Ilova konstruksiyalari tilshunoslikda murakkab sintaktik birliklar sirasiga kirib, nutqda qo‘shimcha axborotni aniqlashtirish, izohlash, baholash hamda ekspressivlikni kuchaytirish vazifalarini bajaradi. Ularning struktur-semantik va funksional xususiyatlari turli lingvistik yondashuvlar doirasida turlicha talqin qilingan bo‘lib, ilova hodisasining nazariy izohi va tadqiq etilish tarixi hozirgi kunda ham dolzarb masala hisoblanadi.

An’anaviy sintaksis doirasida ilova konstruksiyalari uzoq vaqt ikkilamchi yoki yordamchi komponent sifatida baholangan bo‘lsa, struktur, funksional va kommunikativ yondashuvlarning rivojlanishi natijasida ular mustaqil sintaktik hodisa sifatida qayta talqin qilina boshladi. Natijada, ilova konstruksiyalarining nafaqat formal tuzilishi, balki semantik, pragmatik va diskursiv xususiyatlari ham tadqiqot markaziga aylandi.

Zamonaviy tilshunoslikda ilova konstruksiyalari nutq jarayonining muhim vositasi sifatida qaralib, ularning matn tarkibidagi funksional yuklamasi, kommunikativ niyatni ifodalashdagi roli va stilistik imkoniyatlari keng o‘rganilmoqda. Turli tillar materialida olib borilgan tadqiqotlar ilova konstruksiyalarining universalligi bilan birga, tilga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Hozirgi zamon nemis tilida ilova konstruksiyalari ko‘pincha asosiy ifodaga birikib keluvchi, lekin kommunikativ va ohang jihatdan nisbatan mustaqil bo‘lgan birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular grammatik jihatdan asosiy ifodaga bog‘langan bo‘lsa-da, semantik va pragmatik nuqtayi nazardan alohida ma’no yuklamasiga ega bo‘lib, fikrni kengaytirish, konkretlashtirish va izohlashga xizmat qiladi.

Ilova hodisasining universalligi masalasi B.T. Tursunov tadqiqotlarida alohida qayd etilib, u ilova konstruksiyalarini tipologik jihatdan universal va funksional jihatdan serqirra lingvistik hodisa sifatida baholaydi[10]. M.E. Shafiro ishlari esa ilova konstruksiyalarini murakkab sintaktik butunlik va matn doirasida tahlil qilish zarurligini asoslaydi[11].

Nemis tilshunosligida E.V. Guliga va M.D. Natanson ilovali elementlarning struktur turlarini aniqlab, ularning sintaktik imkoniyatlarini ko‘rsatib bergan

---

[10] Турсунов Б.Т. Присоединение в современном немецком языке: Монография. - Самарканд: Изд-во СамГУ, 1988. – 82 с.

[11] Шафиро М.Е. Присоединение как явление речевого синтаксиса: Автореф. дисс…. канд. филол. наук. - Саратов, 1965. – 24 с.

bo‘lsalar-da, ayrim ilovali elementlarning, xususan, ega, kesim va to‘ldiruvchi shakllarining lingvopragmatik jihatlari yetarli darajada o‘rganilmagan[12].

Shu bois, hozirgi zamon nemis tilida ilova konstruksiyalarining lingvopragmatik xususiyatlarini maxsus tadqiq etish, ularning muallifning kommunikativ niyati, baholovchi munosabati va nutqiy strategiyasini ifodalashdagi rolini aniqlash zarurati yuzaga kelmoqda.

Ilova konstruksiyalari hozirgi zamon nemis tilida sintaktik va pragmatik jihatdan murakkab bo‘lib, nutq ifodasi hamda matnning strukturaviy tuzilishida muhim rol o‘ynaydi. Ular gap tarkibidagi asosiy bo‘laklarni to‘ldirish, aniqlashtirish va izohlash orqali fikrning predikativ va stilistik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, ilova konstruksiyalarini o‘rganish grammatik yondashuv bilan cheklanmay, lingvopragmatik va qiyosiy tahlilni ham talab etadi.

Nemis tili materiallari asosida olib borilgan tadqiqotlarda ilova konstruksiyalari ko‘pincha sintaktik-stilistik hodisa sifatida talqin qilinadi. V.V. Gavrilova ilovali elementlarning badiiy matndagi emotsional-ta’sirchanlikni kuchaytirishdagi rolini ko‘rsatadi[13]. L.I. Sokolova esa ilova konstruksiyalarini kommunikativ sintaksis hodisasi sifatida baholab, ularning muallif pragmatik niyatini ifodalashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi[14].

Shuningdek, nemis tilshunosi H. Altmann ilova konstruksiyalarini asosiy ifodani to‘ldiruvchi va aniqlovchi alohida sintaktik komponent sifatida izohlaydilar[15]. Uning qarashlari ilova hodisasining nafaqat grammatik, balki semantik va pragmatik jihatdan ham mustaqil birlik ekanligini ko‘rsatadi.

Metodologik yondashuvlar nuqtayi nazaridan ajratilgan gap bo‘laklari va ilovali elementlarni o‘rganishda bir qator muhim usullar ajralib turadi. Xususan, sintaktik-semantik tahlil ilovali elementlarning sintaktik aloqasi va semantik funksiyasini aniqlashga xizmat qilsa, matn kontekstida tahlil ushbu birliklarni atrofdagi matn komponentlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi.

Metodologik yondashuvlar jihatidan, ajratilgan gap bo‘laklarini va ilovali elementlarni o‘rganishda quyidagilar muhim hisoblanadi:

1. Sintaktik-semantik tahlil – har bir ilovali elementning sintaktik aloqasi va semantik funktsiyasini aniqlash.
2. Matn kontekstida tahlil – ajratilgan bo‘laklar va ilovali elementlar ularning atrofidagi matn birliklari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.
3. Qiyosiy tadqiqotlar – boshqa tillar va turli yozma hamda og‘zaki nutq materiallari bilan solishtirish orqali ilova hodisasining universal va tilga xos xususiyatlarini aniqlash.

---

[12] Гулыга Е. В., Натансон М. Д. Syntax der deutschen Gegenwartssprache. -Moskau-Leningrad, 1966. – 206 с.

[13] Гаврилова В. В. Присоединительные конструкции и их стилистическое использование в произведениях современной немецкой художественной литературы: Автореф. дисс…. канд. филол. наук. -Л., 1969. -24 с.

[14] Соколова Л. И. Присоединительные конструкции в современном немецком языке как явление коммуникативного синтаксиса: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. -Л., 1977. -25 с.

[15] Altmann H. Formen der “Herausstellung” im Deutschen. Rechtsversetzung, Linksversetzung, Freies Thema und verwandte Konstruktionen / Linguistische Arbeiten 106. Hrsgg. H.E. Brekle, H.J. Heringer. – Tubingen: Max Niemeyer Verlag, 1981. – 369 S.

4. Lingvopragmatik yondashuv – ajratilgan bo‘laklar va ilovali elementlarning muloqotdagi funktsiyasini, predikativlik va semantik to‘ldiruvchilik darajasini aniqlash.

Shu yondashuvlar asosida, V.G. Admoni, L.R. Zinder va T.V. Stroyevalar ta’kidlaganidek, barcha gap bo‘laklari ma’lum darajada ajratilgan gap bo‘laklari va ilovali elementlar funksiyasida kelishi mumkin[16]. Bu esa ilova konstruksiyalarni o‘rganishdagi nazariy va metodologik asoslarni mustahkamlaydi, ularning matn doirasidagi yoyilish chegarasi yo‘qligini ko‘rsatadi.

Ilova konstruksiyalarining tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, bitta ilova konstruksiyasida bir nechta funksiya bir vaqtda amalga oshirilishi mumkin. Ularning asosiy doimiy funksiyasi – qo‘shimcha fikr yoki ilova qilish bo‘lib, yangi rematik markaz yaratadi; boshqa funksiyalar fakultativ hisoblanadi. Ilova konstruksiyalari hikoya ritmini o‘zgartirish, matnga kompozitsion xususiyat berish, yozma nutqni jonli qilish va monologik hikoya turkumlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Tinish belgilarining ishlatilishi ifodalilik va ritmni belgilaydi: so‘roq va undov belgisi emotsionallikni oshiradi, uch nuqta ritmni sekinlashtiradi, nuqta esa neytral ajratish vazifasini bajaradi. Ilova konstruksiyasining aniqligi konstruksiyaning struktural xususiyatlari va matn stilistikasi bilan bog‘liq[17].

Asosiy ifodaning takrorlanishi yoki tarqatuvchilar yordamida qo‘shimcha segmentlar aniqligi oshiriladi. Zaiflashtiruvchi omillar esa: asosiy ifoda bilan zaif bog‘lanish, punktuatsiyada uch nuqta ishlatilishi va boshqa struktural xususiyatlardir. Ilova konstruksiyalari matnda kompozitsion-ma’no, matn-ritmik va tematik-birlashtruvchi funksiyalarni amalga oshiradi[18].

XX asrning 30–80-yillari davomida nemis badiiy matnlarida ilova konstruksiyalari rivojlandi: dastlab asosiy ifoda bilan zaif bog‘langan elementlar ishlatilgan, keyinchalik nuqtadan keyingi va masofaviy segmentlar ham kengaytirilgan. Ko‘p elementli zanjirlar asosiy ifodani kuchaytirish va matn ritmini shakllantirishda ishlatiladi.

Pragmatik nuqtayi nazardan, ilova konstruksiyalari matnga kontekstual rang-baranglik, ritm va emotsional ton beradi, yashirin yoki implitsit ma’nolarni ochib beradi va o‘quvchi bilan muallif o‘rtasida dialogik aloqani mustahkamlaydi[19]. Ular asosiy va murakkab his-tuyg‘ularni ifodalash, stilistik effektlar yaratish va matnda ironik, hazil elementlarini kiritishda qo‘llanadi.

Strukturaviy xususiyatlari bo‘yicha ilova konstruksiyalari asosiy ifoda bilan strukturaviy, nostrukturaviy va aralash turdagi bog‘lanishlarga bo‘linadi.

---

[16] Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. -Л.: “Наука”, 1973. – 366 с.

[17] Карпенко М.В. Наблюдения над структурой присоединительных конструкций в современном русском литературном языке: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. -Черновцы, 1958. – 16 с.

[18] Филонова Н.К. Коммуникативная организация парцеллированных высказываний // Структурные и функциональные особенности предложения и текста. - Свердловск, 1989. – С. 31 – 37; Гаибова М.Т. Присоединительные конструкции и их стилистические функции в художественной прозе (на материале английского языка): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. -М., 1973. - 24 с.

[19] Кобзев П.В. Неполные предложения присоединительного типа в современном русском литературном языке: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. -Л., 1966. – 24 с.

Strukturaviy bog‘lanishlarda ilovali element asosiy ifodaning davomiyligi sifatida chiqadi va yangi ma’lumotni yetkazadi[20].

Natijada, ilova konstruksiyalari hozirgi zamon nemis badiiy matnlarida o‘quvchi bilan muallif o‘rtasida pragmatik aloqani mustahkamlash, matn ritmini shakllantirish, ma’nolarni uzatish va emotsional rang-baranglik yaratishda asosiy vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Nostrukturaviy bog‘lanishlar – asosiy qism va ilova qismi o‘rtasida semantik o‘xshashlik qonunlari asosida o‘rnatiladigan ma’noviy bog‘lanishlardir. Semantik o‘xshashlik ilova konstruksiyasining tarkibiy qismlari o‘rtasida ma’no birlikligini ta’minlab, matndagi bayonning yaxlitligini kafolatlaydi. Ushbu qonunlar asosida uch turdagi nostrukturaviy bog‘lanishlar ajratiladi: **semantik takrorlash, semantik interpretatsiya va semantik konkretizatsiya.**



1-rasm. Ilova konstruksiyalarida nostrukturaviy semantik bog‘lanish turlari

Semantik takrorlash – ilova konstruksiyasidagi ma’nodagi takror bilan belgilanadi. Takrorlash uch shaklda bo‘ladi: to‘liq, kengaytirilgan va sinonimik. Bu tur ilova konstruksiyalarining stilistik salohiyatini eng yuqori darajada ta’minlaydi.

Semantik interpretatsiya – ma’lumotni bilvosita, boshqa leksik birliklar orqali ifodalash. Asosiy qism bilan semantik bog‘lanish mavjud bo‘lib, ma’lumot ilova qismida kengayishi yoki siqilishi mumkin.

Semantik konkretizatsiya – kontekstual sinonimlar orqali amalga oshadi; asosiy qismdagi olmoshlar ilova qismida kengaytirilgan shaklga ega bo‘ladi.

Bitta ilova konstruksiyasida strukturaviy va nostrukturaviy bog‘lanishlar bir vaqtda mavjud bo‘lishi mumkin **(**aralash bog‘lanish**).** Ilova konstruksiyalari bir ovozli yoki ko‘p ovozli bo‘lishi mumkin; eng ahamiyatlisi – semantik takrorlash.

Pragmatik salohiyat: Ilova konstruksiyalari global ma’no mazmunini yetkazish, implisit ma’nolarni eksplitsit bilan birgalikda aktualizatsiya qilish

[20] Ким Г.В. Бессоюзные присоединительные конструкции в современном русском литературном языке: - Автореф. дисс. … канд. филол. наук. - Алма-Ата, 1965. – 24 с.

imkonini beradi. Yashirin ma’no matnning intonatsion naqshini yaratadi va muallif yoki personajning emotsional tajribasini yetkazadi.

Emotsional va stilistik funksiyalar: Ilova konstruksiyalari asosiy va dunyoqarashga oid his-tuyg‘ularni ifodalashda ishlatiladi: quvonch, qayg‘u, g‘azab, hayrat, nafrat, shuningdek, ironik, satirik, hazilomuz va sarkastik ohanglarda. Shu bilan ular matnga ritmik tuzilish, emotsional rang-baranglik va o‘quvchi bilan muallif o‘rtasida dialogik aloqani yaratadi.

Tasnifdan ko‘rinib turibdiki, ilova konstruksiyalari har ikki his-tuyg‘ular guruhini – asosiy va dunyoqarashga oid – ifodalashda samarali lingvopragmatik vosita hisoblanadi. Ular ijobiy va salbiy emotsiyalarni eksplitsit (ochiq) ham, implitsit (yashirin) shaklda ham yetkazadi. Ilova qismi asosiy ifodaning emotsional urg‘usini kuchaytirib, muallif yoki personajning ruhiy holati va munosabatini aniqlashtiradi.

2-jadval

Ilova konstruksiyalari orqali emotsional-implitsit ma’nolarning ifodalanishi

His-tuyg‘ular guruhi	His-tuyg‘ular turlari	Ilova konstruksiyalarida namoyon bo‘lishi
Asosiy his-tuyg‘ular	Quvonch	Ijobiy emotsional holatni kuchaytirish, emotsional urg‘uni oshirish
	Qayg‘u / azob	Ruhiy holatni chuqur ifodalash, ichki kechinmani ochish
	G‘azab / achchiqlanish	Keskin emotsional reaksiya, ekspressiv ta’sirni kuchaytirish
	Hayrat	Kutilmaganlik effektini yaratish, implisit ma’noni faollashtirish
	Nafrat	Salbiy baholash va muallif munosabatini ifodalash
Dunyoqarashga oid his-tuyg‘ular	Ironiya	Yashirin baho va kinoyaviy ma’noni ifodalash
	Sarkazm	Keskin tanqidiy munosabatni implisit shaklda yetkazish
	Hazil	Yengil emotsional ohang yaratish, kommunikativ yumshoqlik
	Satira	Ijtimoiy yoki shaxsiy hodisalarga tanqidiy-emotsional munosabat

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ilova konstruksiyalari emotsional-implitsit ma’nolarni ifodalashda yuqori pragmatik imkoniyatlarga ega bo‘lib, asosiy va dunyoqarashga oid his-tuyg‘ularning turli darajalarini faollashtiradi. Ular emotsional urg‘uni kuchaytirish, yashirin baho va munosabatni ifodalash hamda matnning emotsional-estetik ta’sirini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Ularning turli pozitsiyalari va strukturaviy turlari (bir ohangli, ko‘p ohangli) matnda emotsional va pragmatik ta’sirni belgilaydi. Ilova konstruksiyalari nafaqat ma’lumotni kengaytirish, nutq ritmini shakllantirish, balki implitsit ma’nolarni yuzaga chiqarish orqali muallif yoki personajning emotsional va baholovchi munosabatini ifodalaydi. Mikrokontekst va makrokontekst ularning yashirin ma’nolarini ochishda asosiy rol o‘ynaydi[21].

[21] Гаврилова Г.Ф. Осложненные вставные конструкции в современном художественном дискурсе // Активные процессы в различных типах дискурсов: Материалы междунар. конф. - М./ Ярославль, 2009. – 59-65.

Natijada, ilova konstruksiyalari badiiy matnda pragmatik va ekspressiv vosita sifatida o‘quvchi bilan muallif o‘rtasida samarali kommunikativ aloqani ta’minlaydi, matnning emotsional rang-barangligini va stilistik ifodalikni oshiradi.

Dissertatsiyaning **“Hozirgi zamon nemis tilida ilova konstruksiyalarining dialogik nutqda qo‘llanishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida dialogik nutqda ilova konstruksiyalarining lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda ilova konstruksiyalarining kommunikativ funksiyalari, suhbat jarayonida axborotni aktuallashtirish va so‘zlovchining pragmatik niyatini ifodalashdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, dialogik nutqda qo‘llaniladigan ilovali elementlarning struktur-semantik turlari aniqlanib, ularning kontekst bilan munosabati izohlanadi. Bobda ilova konstruksiyalarining pragmatik ta’sir mexanizmlari ochib berilib, ilova orqali qo‘shimcha axborotning aniqlik va ekspressivlik bilan yetkazilishi, turli uslubiy qatlamlardagi kommunikativ yuklamasi konkret misollar yordamida asoslanadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida nutq birliklarini faqat struktur-semantik jihatdan emas, balki ularning real kommunikativ muhitdagi ishlatilishi, pragmatik yo‘nalishi va nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirishdagi o‘rni asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, dialogik nutqda ilova konstruksiyalari alohida e’tiborga loyiqdir, chunki ular gapning asosiy qismiga bog‘langan holda qo‘shimcha axborot yetkazadi, nutqning ekspressivligini oshiradi va kommunikativ niyatni aniqroq ifodalaydi. Ilova konstruksiyalari adresant va adresat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni kuchaytirib, nutqning mantiqiy va pragmatik yaxlitligini ta’minlaydi[22].

Ilova konstruksiyalari dialogik nutqda nutq harakatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u orqali so‘zlovchi o‘z maqsad, baholovchi munosabat yoki izohini yetkazadi. Ular asosiy ifodaga qo‘shimcha remani berib, kommunikativ taranglikni yaratish yoki bartaraf etish imkonini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ilova konstruksiyalari reaktsiyaviy nutqda tinglovchining javobini strukturaga moslashtiradi va dialogning uzviy konstruktsiyasini shakllantiradi.

„Wie war dein Tag gestern?“

– „Blabla, plapper plapper…“

– „…die erste Ohrfeige meines Lebens“ (Becker. *Irreführung der Behörden*, 25 S.)

Asosiy ifoda (kam ma’lumotli birlik):

„etwas“ / „Blabla“

→ [+noaniqlik], [+axborot yetishmasligi], [+kommunikativ taranglik]

Ilovali element:

„die erste Ohrfeige meines Lebens“

→ [+konkretlashtirish], [+dramatizatsiya], [+emotsional yuklama]

Bu yerda kam axborotli birlik (etwas / Blabla) dialogda kommunikativ “bo‘shliq” hosil qiladi va tinglovchida tushunmovchilikni yuzaga keltiradi. Natijada, nutq davom ettirilishiga majbur bo‘ladi va ilovali element orqali asosiy axborot ochib beriladi. Bu jarayon kommunikativ strategiya sifatida qiziqishni ushlab turish va diqqatni kuchaytirish funksiyasini ham bajaradi.


---

[22] Ванников Ю.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. - М.: Русский язык, 1979. - 296 с.

Shuningdek, ilova konstruksiyalari nutq harakatlarining illokutiv xususiyatlarini mustahkamlaydi. Masalan, reprezentativ nutq harakatlarida ular so‘zlovchining faktni bildirish va tasdiqlash niyatini kuchaytiradi, ekspressiv harakatlarda esa emotsional taranglik yaratadi. Shu bilan birga, ilova konstruksiyalari kommunikativ muvaffaqiyatni oshirishga xizmat qiladi, chunki ular adresantning e’tiborini muhim ma’lumotga jalb qiladi.

Natijada, ilova konstruksiyalari dialogik nutqda nafaqat asosiy ifodaga qo‘shimcha remani beradi, balki kommunikativ va pragmatik funktsiyalarni amalga oshiruvchi vosita sifatida faol bo‘ladi. Ular nutqning uzviyligi, muloqot samaradorligi va ekspressivligini ta’minlaydi, shuningdek, nutqiy harakatlarning illokutiv kuchini mustahkamlaydi.

Yuqoridagi fikrlarni jamlab, tadqiqot natijalarini diagrammada ko‘rsatamiz. Mazkur diagrammada hozirgi zamon nemis tilida ilova konstruksiyalarining turli nutq harakatlari doirasida qo‘llanish chastotasi aks ettirilgan.



2-rasm. Ilova konstruksiyalarining dialogdagi funksionalligi (nutq harakati turlariga ko‘ra)

Diagramma tahlili shuni ko‘rsatadiki, ilova konstruksiyalari hozirgi zamon nemis tilida asosan axborot beruvchi nutq harakatlarida (77%) ishlatiladi, ma’lumotni aniqlashtirish va kommunikativ markazni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Buyruq beruvchi (10%), javob talab qiluvchi (7%) va boshqa nutq harakatlarida esa kamroq uchraydi, ya’ni ularning funksiyasi ko‘proq informativ va izohlovchi xarakterga ega.

Ilova konstruksiyalari uch asosiy variantda ishlatiladi: 1) Asosiy ifoda va ilova konstruksiyasi bir kommunikant nutqida; 2) Asosiy ifoda boshlovchi, ilova konstruksiyasi esa javob beruvchi nutqida; 3) Bir nechta ilova konstruksiyalari boshlovchi va javob beruvchi o‘rtasida taqsimlanadi.

Ularning vazifalari: asosiy ifodaning mazmunini aniqlashtirish, kengaytirish, tinglovchiga qo‘shimcha ma’lumot berish, salbiy yoki ijobiy konnotatsiya qo‘shish

va kommunikativ interaktivlikni oshirish. Noverbal signallar (mimika, nigoh, tana harakati) ham ilova konstruksiyalarining samarali ishlashini mustahkamlaydi.

„Er war Arzt, genauer gesagt Chirurg”.

(Duden 2016: 1048–1049 S.)

Misolda ilova konstruksiyasi asosiy ifodani aniqlashtirib, xabar obyektivligini oshiradi va tinglovchiga noqulay yangilikni qabul qilish imkonini beradi.

Struktur-semantik jihatdan, ilova konstruksiyalari asosiy ifoda bilan turlicha aloqada bo‘ladi: to‘liq korrelyatsiyali, qisman korrelyatsiyali va nol korrelyatsiyali (Veyxman, 1969), shuningdek, uzilib qolgan bo‘lak, aniqlashtiruvchi yoki qo‘shilish tipidagi bo‘lishi mumkin (Andrievskaya, 1963). Bu tasniflar dialogik nutqda ilova konstruksiyalarining pragmatik vazifalarini aniqlashda muhimdir.

Shunday qilib, ilova konstruksiyalari dialogda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida mazmuniy va kommunikativ yaxlitlikni ta’minlaydi, asosiy ifodani kengaytiradi, izohlaydi va interaktivlikni kuchaytiradi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, hozirgi zamon nemis tilidagi dialogik nutqda ilova konstruksiyalari doirasida asosiy ifoda va ilovali element o‘rtasida uch asosiy struktur-semantik aloqa turi mavjud:

1) Sof struktur aloqalar; 2) Sof bo‘lmagan struktur aloqalar; 3) Aralash aloqa turlari.

3-jadval

Asosiy ifoda va ilovali element o‘rtasidagi struktur-semantik aloqa turlari

Aloqa turi	Asosiy ifoda va ilovali element o‘rtasidagi munosabat	Lingvopragmatik xususiyati
Sof struktur aloqalar	Ilovali element asosiy ifodada formal yoki semantik analogga ega emas	Axborot jihatdan muhim bo‘lgan yangi kommunikativ markazni yuzaga chiqaradi, urg‘u va ekspressivlikni kuchaytiradi
Sof bo‘lmagan struktur aloqalar	Ilovali element asosiy ifoda bilan semantik o‘xshashlik asosida bog‘lanadi (takror, talqin, konkretlashtirish)	Axborotni aniqlashtirish, izohlash va mazmuniy yaxlitlikni ta’minlashga xizmat qiladi
Aralash aloqa turlari	Sof struktur va sof bo‘lmagan struktur aloqalar bir konstruksiya doirasida birlashadi	Dialogik nutqda murakkab pragmatik maqsadlarni ifodalash, nutqning ta’sirchanligini oshiradi

Hozirgi zamon nemis tilida ilova konstruksiyalari dialogik nutqning muhim lingvopragmatik elementi hisoblanadi. Ular asosiy ifoda bilan turlicha semantik aloqada bo‘lib, matnga stilistik bo‘yoq beradi, muallif niyatini ochib beradi va tinglovchining e’tiborini muayyan nuqtaga yo‘naltiradi.

Struktur-semantik turlari:

